



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 30-iyun

VII-11-71-7-96-K/25

Kattaqo‘rg‘on tumani

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-apreldagi “Mehnat migrasiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-59-son hamda “Migratsiya jarayonlarini boshqarish tizimini isloh qilish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-162-son Farmonlarinning Kattaqo‘rg‘on tumanida ijrosini ta’minalash yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-apreldagi “Mehnat migrasiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-59-son hamda “Migratsiya jarayonlarini boshqarish tizimini isloh qilish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-162-son Farmonlarinning asosan shuningdek, xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tuman Kengashi O‘zbekiston Milliy Tiklanish Demokratik Partiyasi deputatlik guruhi hamda deputatlarni taklif va fikr mulohazalarini inobatga olib, tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i E.Raximovning hisobotini tinglab, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashi VII chaqiriq o‘n birinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-apreldagi “Mehnat migrasiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-59-son hamda “Migratsiya jarayonlarini boshqarish tizimini isloh qilish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-162-son Farmonlarinning Kattaqo‘rg‘on tumanida ijrosini ta’minalash yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i E.Raximovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.Zavqiyev, Mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi boshlig‘i G.To‘chiyev hamda tuman Ichki ishlar bo‘limi (A.Ochilov) bilan hamkorlikda:

xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirish davrida zo'ravonlikka, majburiy mehnatga jalb qilingan va kamsitilgan, mehnat va boshqa huquqlari buzilgan, shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarsiz va murakkab moliyaviy ahvolda qolgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini huquqiy va ijtimoiy himoya qilish, ularga moddiy yordam berish;

mehnat migrasiyasida bo'lган davrida jarohat olgan, baxtsiz hodisaga duch kelgan, o'tkir yoki og'ir kasalga chalingan fuqarolarga tibbiy xizmat ko'rsatish;

mehnat migrasiyasida bo'lган davrda vafot etgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari jasadlarini, shuningdek mehnat faoliyati vaqtida mayib bo'lган yoki og'ir jarohatlar olgan fuqarolarni olib kelish choralarini ko'rish tavsiya etilsin.

5. Tuman hokimining birinchi o'rribbosari M.Zavqiyev, tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi (E.Raximov) bilan birgalikda mahallalardagi hokim yordamchilari tomonidan mehnat migrasiyasidan qaytib kelgan shaxslarni xatlovdan o'tkazish, ularga reintegrasiya yordamini ko'rsatish va rasmiy bandligini ta'minlab, kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik dasturlariga muvofiq kreditlar ajratish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni belgilasınlar.

6. Tuman hokimi o'rribbosari, Oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i S.Djumayeva va tuman "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi (N.Jo'rayev) hamkorlikda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan fuqarolar xonadoniga, og'ir ahvolga tushib qolgan va og'ir ahvolga tushib qolish xavfi yuqori bo'lган oilalarga borib, ularga manzilli ijtimoiy xizmat va yordamlar ko'rsatsinlar.

7. Tuman hokimining o'rribbosari O.Shirinov, Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi (L.Abduqaxxorov), tuman Tibbiyot birlashmasi (V.Xudoyqulov) va tegishli mas'ul tashkilot rahbarlariga:

xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarning farzandlariga ta'lim, tibbiyot va boshqa ijtimoiy xizmatlar ko'rsatilishiga yordamlashish;

yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ularning intellektual jihatdan kamol topishini va ma'naviy rivojlanishini ta'minlashda mahallalardagi yoshlar yetakchilari bilan hamkorlikni tizimli yo'lga qo'yish;

mehnat migrasiyasidan qaytib kelgan yoshlarga o'z tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishlari uchun kreditlar ajratilishida hamda ota-onasi xorijda mehnat qilayotgan yoshlarga ijtimoiy yordam ko'rsatish choralarini ko'rsinlar.

8. Mahallalar uyushmasi tuman bo'limi boshlig'i G'.To'ychiyev, tuman Tibbiyot birlashmasi (V.Xudoyqulov) va tuman Ichki ishlar bo'limi (A.Ochilov)ga:

xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarning xonadoniga, og'ir ahvolga tushib qolgan va og'ir ahvolga tushib qolish xavfi yuqori bo'lган oilalarning ijtimoiy-ma'naviy muhitni yaxshilash borasida profilaktik tadbirlar o'tkazish;

mahallalarda mehnat migrasiyasidan qaytib kelgan shaxslarning xatlovdan o'tkazilishi, natijalari "Reintegrasiya" moduliga kiritilishi hamda reintegrasiya yordami ko'rsatilishi, rasmiy bandligini ta'minlash;

mehnat migrasiyasidan qaytib kelgan shaxslar hamda ularning oila a'zolarining bepul tibbiy ko'rikdan o'tkazilishi, ijtimoiy ahamiyatli kasallikka chalingan shaxslarga bepul tibbiy yordam ko'rsatish;

mehnat migrasiyasiga ketayotgan fuqarolarni hududdagi monomarkazlarda xorijiy tillarga o'qitish, xorijiy davlatlarning mehnat qonunchiligi bo'yicha bilimlarini oshirish ishlarini yo'lga qo'yish yuzasidan aniq choralarini ko'rib borsinlar.

9. Xalq deputatlari tuman Kengashining deputatlari o‘z okruglarida xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini olib borayotgan fuqarolar xonadonlari va migrasiyadan qaytgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha olib borilayotgan ishlar ustidan deputatlik nazoratini o‘rnatib, mavjud muammolar, yo‘l qo‘yilayotgan xato va kamchiliklar, masalaga mas’uliyatsizlik bilan yondashish holatlari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashi (Kengash kotibiyati)ga ma’lumot kiritib borsinlar.

10. Tuman hokimligi matbuot kotibi J.Safarov, Kattaqo‘rg‘on kecha va bugun gazetasi muxarriri O‘Usmonov ushbu Kengash qarorining ijrosini, shuningdek tumanda mehnat migrasiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni (tadbirlarni) rasmiy internet-kanallar va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish tavsiya etilsin.

11. Mazkur Kengash qarorining ijrosini nazorat qilish vazifasi xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirishva iqtisodiy islohatlar doimiy komissiyasi (A.Xudoyberdiyev), Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (D.Mirzaxonova), Korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (R.Djurayev) hamda tuman hokimi o‘rnbosarlari (M.Zavqihev, O.Shirinov va S.Djumayeva) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKNOVICH